

## POEZIYA SAN'ATI HAQIDA SHARQ VA G'ARB SHE'RSHUNOSLARINING QARASHLARI

Saidova Rayhon Bekmurodovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zarmed universiteti o'qituvchisi.

(O'zbekiston)

E-mail: [malikau494@gmail.com](mailto:malikau494@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13896894>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yunonlar, arablar, turkiy xalqlar adabiyotidagi vazn, qofiya, obraz, umuman, she'r borasidagi qarashlari aks ettiriladi. Farobi, Ibn Sino, Kaykovus, Ahmad Taroziy, Yusuf Xos Hojib kabi ijodkorlarning nazm xususida aytgan mulohazalari tahliliga tortiladi. Yevropa poetikasi uchun ham, Sharq adabiyoti uchun ham muhim hisoblangan vazn va qofiya borasidagi turfa qarashlar bayon qilinadi. Poeziya san'atida muhim bo'lgan lirika so'zining lug'aviy ma'nolari haqida ham so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** she'r, shoir, poeziya, vazn, qofiya, obraz, pafos, taqlid, mimemis, mubolag'a.

## VIEWS OF EASTERN AND WESTERN POETS ON THE ART OF POETRY

**Abstract.** This article reflects the views of Greeks, Arabs, and Turkic peoples regarding weight, rhyme, image, and poetry in general. The opinions of artists such as Farabi, Ibn Sina, Kaikovus, Ahmad Tarazi, Yusuf Khos Hajib about poetry are analyzed. Various views on weight and rhyme, which are considered important for both European poetics and Eastern literature, are described. The dictionary meanings of the word lyric, which is important in the art of poetry, are also discussed.

**Keywords:** poem, poet, poetry, weight, rhyme, image, pathos, imitation, mimesis, exaggeration

## ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ПОЭТОВ НА ПОЭЗИЧЕСКОЕ ИСКУССТВО

**Аннотация.** В данной статье отражены взгляды греков, арабов и тюркских народов на вес, рифму, образ и поэзию в целом. Анализируются мнения о поэзии таких художников, как Фараби, Ибн Сина, Каиковус, Ахмад Тарази, Юсуф Хос Хаджисаб. Описаны различные взгляды на вес и рифму, которые считаются важными как для европейской поэтики, так и для восточной литературы. Также обсуждаются словарные значения слова лирика, имеющего важное значение в поэтическом искусстве.

**Ключевые слова:** стихотворение, поэт, поэзия, вес, рифма, образ, пафос, подражание, мимесис, преувеличение.

Shuni aytish kerakki, tarixan she'r asosi deb qabul qilingan mezonlar quyidagilar: 1. Vazn va qofiya. 2. Obrazli fikrlash (taqlid yoki mimises). 3. Pafos. 4. Sodda tushunarli til (uslubga aloqador). Bu qoidalar zamonaviy she'riyatda ham unchalik farq qilmaydi, faqat yunonlar va arablar birlamchi mavqega ko'targan vazn o'z mavqeini biroz yo'qotgan, xolos.

XVII-XVIII asr Yevropa adabiyotida ham vazn va qofiya masalasi muhim edi. Shuning uchun ham Bualo "Poeziya san'ati" asarida quyidagicha fikrni qat'iy ohangda aytadi: "İstər faciədə istərsə də ballada vey a yekloqta qafiyə ilə fikir arasında ayrılıq olmamalıdır. Onların arasəndə adavət yoxdur və bir-birilə mübarizə yetmirler: fikir qafiyənin hökmdarı, qafiyə iso fikrin

müti quludur”<sup>1</sup> (Mazmuni: xoh tragediya, xoh ballada, xoh eklogda qofiya va fikr o‘rtasida ayriliq bo‘lmasligi lozim. Ularning orasida adovat yo‘qdir va bir-birlariga daxl qilmaydilar: fikr qofiyaning hukmdori, qofiya esa fikrning tobe qulidir). Bualo iste’dodli shoirlar haqida gapirib, ular qofiya va vaznni idroklariga bo‘ysundira olishlarini ta’kidlaydi. U Farobiyning arab she’riyati haqidagi so‘zdan foydalanish va nozik uslub haqidagi fikrlariga mos qarashlar tarafdoi bo‘lgan va she’rda qo‘pol so‘zlardan, bo‘rttirilgan mubolag‘alardan uzoqlashish kerakligini, tasvir uslubining o‘zida nazokat bo‘lishi shartligini uqtiradi. Demak, jahon she’riyati ikki tip: antik va islomiy mezonlar asosida adabiy qonuniyatlar kasb etgan va bu mezonlar u yoki bu ma’nolarda dastlabki davrlardan hozirgi kunlarga qadar qat’iy amal qilib kelinadi.

Yunon antik davrida san’atning o‘rni beqiyos bo‘lib, san’at turlari hayotning ajralmas qismiga aylangan edi. Masalan, haykaltaroshlikning quruvchilikda ne qadar tengsiz shuhrati mavjudligini yunon ibodatxonalarini-yu, mifologiya va adabiy qahramonlarga ishlangan san’at namunalari isbotlaydi. Ayniqsa, san’at va mifologiya inson tomonidan yaratilgan bo‘lib, ikkisida ham olam va odamning aqldan tashqarida bo‘lgan haqiqatlari aks ettiriladi. Yunonlar o‘zlarini yaratgan tangrilarga juda qattiq ishonishgan, ular uchun har sohada bir xudo mavjud edi. Masalan, bilim va san’atning bosh xodosi sifatida Apolloni talqin qilishadi. Appolon bundan tashqari musiqa va she’r xodosi ham sanalgan. Uning haykali va rasmlar tasviri hech qanday nuqsonisz, yosh yigit qiyofasida gavdalanadi. Apollon “lir” chalmoqda eng usta Tangri bo‘lgan. Lirika so‘zining shu cholg‘u asbobi nomidan kelib chiqishi ham san’atlar bog‘lamidan darak beradi.

Yunon adabiyoti asosi sifatida mifologiya haqida so‘z ketar ekan, unga aloqador to‘qqiz Tangri haqida fikr yuritish ahamiyatlidir. Bular Zevs hamda titan Mnemosinening to‘qqiz qizi.

**Calliope** gelyeneksel olarak yen önemli olan (güzel seslidir ve yepik şiri ve aynı zamanda retoriği temsil yeder),

**Clio** (tarihi yücyeltir ve temsil yeder),

**Yerato** (sevimli ve şarkı söylemeyi temsil yeder),

**Yeuterpe** (hoş ve lirik şiri temsil yeder),

**Melpomene** (şarkı söylemeyi ve trajedyi temsil yeder),

**Polymnia** (tanrılarla ve kahramanlara ilahiyi temsil yeder),

**Terpsichore** veya Stesichore (danstan zevk alır),

**Thalia** (çiçek açar ve komedyi temsil yeder),

**Urania** (gökseldir ve astronomiyi temsil yeder)<sup>2</sup>.

Ularning yashash joyi ham shoirlar uchun maxsus va mashhur bo‘lgan Parnas tog‘ida bo‘lgan. Ular to‘qqiz tangriga to‘qqizta ilhom parisi sifatida qaraganlar. Shundan antik madaniyatda san’at, adabiyot, she’riyat mifologiya bilan bog‘lanib ketgan edi.

Antik davr adabiyotining vazniy qoliplari jahon adabiyotida bugungi kungacha saqlanib keladi. Masalan, sonet janrining qat’iy yambik pentametrda yozilishi uning asosiy qoidalaridan biridir. Xuddi shunday arab she’riyatida ham Farobiya ta’riflaganidek, shoirlar o‘z she’rlarida o‘lchovga qattiq rioya qilganlar. Biz she’riyatidan xabardor bo‘lgan ko‘pgina xalqlarga qaraganda arablar o‘z she’rlarida baytlarning oxirlariga ko‘proq e’tibor beradilar. Shuning uchun ham arab

<sup>1</sup> Bualo. Poeziya sənəti. – Bakı: “Şərq-Qərb”, 2006. –S.21

<sup>2</sup> <https://www.worldhistory.org/trans/tr/1-787/dokuz-tanrcalar-musalar/>

baytlari ma'lum bir o'chovdag'i mahdud so'zlar bilan mukammal va go'zal bo'ladi<sup>3</sup>. Farobiy she'rda mubolag'ali tashbehlarning haddan ortiq darajada mavjudligini she'rning asosiy xususiyati hisoblashgan, deya ta'kidlaydi. Ritorikadan, ya'ni notiqlik san'atidan she'r shunisi va vazni bilan ajralib turgan. Ammo ba'zi notiqlar o'z nutqlarini ta'sirchanroq bo'lishi uchun she'riy shaklda ham bayon qilganlar. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloga" asarida aruz vazniga to'xtalar ekan, turkiy adabiyot uchun uning o'ziga xosliklari masalasiga ham e'tibor beradi.

Bu haqida adabiyotshunos Dilnavoz Yusupova quyidagicha xabar beradi: "Asarda aruzning turkiy til qonuniyatlariga mosligi masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan. Muallif aruz ilmini yoritishdan bosh maqsadi arab va fors olimlari tomonidan kashf qilingan bahrlarni "turkiy iborat birla bayon" qilish ekanligini aytar ekan, turkiy til imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadi.

Xususan, Taroziy "ng" birikmasining turkiy tilda bir tovushni ifodalashini aytib, aruz vazni bilan bog'liq o'rnlarda bu jihatga diqqat qaratilishi zarurligini ta'kidlaydi: "Bilgilkim, turkiy lafzda ba'zi yerda "nun" va "kof" bir harf sonida sanalur, agarchi kitobatta ikki harf bitilur".

Shuningdek, bahrlar va ulardan hosil bo'luvchi vaznlarni tushuntirishda muallif asosan turkiy she'riyat uchun xos bo'lgan matbu' (yoqimli, tab'ga ma'qul) vaznlarni berishni ma'qul ko'radi: "Endi bizning kitobimizning binosi turkiyadur. Nomatbu' vaznlarni tark qilmoq, munosibroq bo'lg'ay". Asarning uslubi o'ta sodda va yengil. Turkiy kitobxonga qulay bo'lishi va o'rganish osonlashishiga erishish uchun Taroziy ko'p istilohlarni sodda yo'sinda bayon qilishga intiladi va ko'p o'rnlarda buni qayta-qayta ta'kidlaydi: "*Bilgilkim, ul sababitin bir she'rni tag'yir qilib, har misol uchun takror qilurbizkim, mutbadi(yangi boshlovchi)g'a har vaznning tafovuti ma'lum bo'lg'ay va hech daqqaq muhmal qolmag'ay*"<sup>4</sup>. Turkiy adabiyotda she'r shunday muqaddas va murakkab hodisa hisoblangan. Unda Alloh kalomi va payg'ambar hadislari aks etgani bois yuksak rutbaga ko'rildi. Har qanday ijod kishisining nasrda yoza olish imkonni bo'lsada, nazmda qalam tebrata olmaydi. She'riyat – butun adabiyot, poeziya bo'lib, nasr oddiy nutq qismi kabi qaralgan. Badiiylikni faqatgina she'r orqali ifodalash mumkin degan qarashlar mavjud bo'lgan. Mulohazalarimizni Taroziyning ushbu so'zları bilan dalillaydi: "...ammo hakimi alimg'a nazmda hikmatdur, zerokim, har johili laim anga yo'l topmas"<sup>5</sup>. Shayx Ahmad Taroziy nazm navlaridan o'n turni sanaydi, bular nafaqat arab, turkiy adabiyotning ham faol janrlaridan edi: "...qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard"<sup>6</sup>.

Bularning har qaysilarida hamd, na't, munojot, manoqib, madh, marsiya, hajv yo mazammat, mutoyiba kabi maxsus qismlari mavjud. Gap shundaki, antik davrda yaratilgan janrlar bilan bularning mushtarak jihatlari ham ko'rindi.

Masalan, antik elegiyalarda qahramon halokati tasvirlari marsiyaga o'xshab ketsa, yamb, komediya hajv yoki mazammat bilan, difirambida madhga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Sharq adabiyotida faqatgina aruz emas, barmoq vazni ham qadimdan iste'molda bo'lgan.

Arab adabiyotining Sharq mamlakatlariga bosqindan keyin ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsada, "Devoni lug'otit turk"dagi va Yassaviy bitgan to'rtliklarning barmoqdagi go'zal namunalar ekanligini bilamiz. Abu Nasr Farobiy vazndan tashqari o'z davri she'riyati uchun hammaga

<sup>3</sup> Abu Nasr Farobiy. She'r san'ati. – T.: Fan, 1979. – B.14

<sup>4</sup>Dilnavoz Yusupova. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-baloga" asarida turkiy aruz masalalari. <https://www.researchgate.net>

<sup>5</sup> Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-baloga. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2002-yil, 1-son. –B.5

<sup>6</sup> O'sha manba. – B . 6

tushunarli so‘zlardan foydalanish she’rni fasohatli qilib ko‘rsatishini aytadi. Bu xususda olim Abdurauf Fitratning fikrlari ham nihoyatda muhimdir. She’rga xos bo‘lgan bu qoida bugungi she’riyatning ham asosiy mezonlaridan biridir. Adabiyot xalqchil bo‘lishi uchun xalq tushunadigan sodda tilda yozilmog‘i darkor. Ammo sodda til va sodda mazmun, sodda mavzu, sodda ifoda kabilarni adashtirib yubormaslik kerak. Shoir Aziz Said “Qaydadir meni ham tushungan dil bor” maqlasida “Xalq muhabbatni nisbiy mezon. She’rning darajasi, shoirning qudrati faqat shular bilan o‘lchanmaydi. San’atning, yuksak adabiyotning she’rni baholaydigan mezonlari bor”, - degan edi<sup>7</sup>. She’r shaklida yaratiladigan boshqa ilmiy mulohazalar ham she’r tarixida asosiy o‘rin egallaydi. Barcha navlar shunday vaznlarda yaratilgani bois ham she’r orqali ifoda etilgan turli ilmlar she’riyatga aloqador deb qaralgan. Farobiy yunonlarga tegishli bo‘lgan shunday navlardan birini e’tirof ham etadi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Ibn Sinoning tibbiyotga oid dostonlari vaznga solib yozilgani yuqorida shakl bilan mos keladi. Ibn Sino bu asarlarini “urjo‘zalar” deb nomlagan va ular aruzning rajaz bahrida bitilgan. Chunki rajaz vazni payg‘ambarimiz davri she’riyatida ham asosiy vazn hisoblanib, hatto she’r atamasi bilan teng maqomga ega bo‘lgan. Urjo‘za janrining kelib chiqishi ham shu vazn bilan bog‘liqdir. Arab ma’rifatparvari va adibi Jurjiy Zaydonning ko‘rsatishicha, rajaz vazni she’r vaznlarining eng avvalgisi va eng qadimgisidir. Bu vazndagi baytlar masnaviyga o‘xshash qofiyadosh bo‘ladi. Bu vazn o‘z davrida xalqchil, odamlar orasida keng tarqalgan vazn bo‘lgan. Har kim ham bu vaznda she’r aytaliga oltincha bu bahr kengayib, urjuza deb ataladigan qasida va she’rlar bitilgan<sup>8</sup>.

Abu Ali ibn Sino bu to‘qqizta urjo‘za mazmuni bilan shoir sifatida tanilmasa-da, falsafiy she’rlari va adabiyotga oid “Risolat at-tayr”, “Salomon va Ibsol”, “Yusuf” kabi qissalari va ruboiylari uning yaxshigina ijodkorligini isbotlab beradi. Shuni aytish kerakki, insonga ato qilingan so‘z qudrati uning ko‘rkidir. Bu qudrat shoirlarda kuchliroq bo‘ladi. Sharq mumtoz adabiyotida so‘z Alloh tomonidan berilgan eng ulug‘ ne’mat sifatida qaraladi va uning hosilasi she’r ham shunday muqaddas sanaladi.

*Yashil ko‘kdin indi yag‘iz erka so‘z  
So‘zi birla yanglug‘ ag‘ir qildi o‘z<sup>9</sup>.*

Yuqorida misralarda Yusuf Xos Hojib: “So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi, so‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi”, – deydi. So‘zning ko‘kdan tushdi, deyilishi bilan Alloh kalomiga nisbat berilmoqda<sup>10</sup>. Mumtoz asarlarning dastlabki qismlarida shoirlar, albatta, so‘z ta’rifiga alohida e’tibor berishgan. XVII-XVIII asrda Yevropa adabiyotida ham vazn va qofiya masalasi ahamiyatli edi. Bualo haqiqiy iste’dodga ega shoirlar haqida gapirarkan, ular qofiyani ham, vaznni ham idroklariga bo‘ysundira olishlarini ta’kidlaydi. Bualo ham Farobiyning arab she’riyati haqidagi so‘zdan foydalanish va nazokatli uslub haqidagi fikrlariga mos hukmlar tarafdoi bo‘lgan va she’rda qo‘pol so‘zlardan, o‘ta bo‘rttirilgan mubolag‘ alardan uzoqlashish kerakligini, tasvir uslubining o‘zida nazokat hamda noziklik bo‘lishi shartligini uqtiradi. Bu Sharq adabiyotining yetakchi tamoyiliga aylanib ulgurgan. Shu o‘rinda Kaykovusning “Qobusnama” dan misol keltiramiz: “Ey farzand, agar shoirlik qilmoqchi bo‘lsang, harakat qil, toki so‘zing oson va foydali

<sup>7</sup> Aziz Said. Vaqt manzili. Akademnashr.-T.:2021,-67-b

<sup>8</sup> Abu Ali ibn Sino. Lirika. –B. 2 .www.ziyouz.com

<sup>9</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.

<sup>10</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.

*bo 'lsun, g 'omizi va mushkul so 'zdin parhez qilg 'il va o 'zing bilib, o 'zgalar uning sharhiga muhtoj bo 'lg 'udek so 'zni aytmag 'il, nedinkim she'r aytg 'on kishi xalq uchun aytur va o 'zi uchun aytmas.*

*Bir xil vazn va bir xil qofiyaga qanoat qilmag 'il, san 'tasiz va tartibsiz she'r aytma 'il*<sup>11</sup>.

Bu fikrda: “o 'zgalar uning sharhiga muhtoj bo 'lg 'udek so 'zni aytmag 'il, nedinkim she'r aytg 'on kishi xalq uchun aytur va o 'zi uchun aytmas” - jumlesi e'tiborimizni tortadi. Bu konsepsiya ko 'pchilik tomonidan e 'tirof etilgan bo 'lsa-da, zamon o 'zgarishi bilan tamoyilda kuch qolmagandek taassurot paydo bo 'ladi. Bugunning modernistik shoirlari tushuntirish shart emas, deb hisoblaydi. Ular ilmlarini rivojlantirgan holda yozganlari xalqning “murakkab she'r” degan atamasiga sabab bo 'ladi. Ammo adabiyot ko 'ngil hislari ekan, tarjimani tuyg 'ular bajaradi.

Ikkinchi tomondan olsak, tafakkur ustunlik qilgan joyda hijjalamoqqa zarurat bo 'lmaydi.

Xalq tafakkuri ham bugungi davr she'rriyatiga moslashishi lozim. Vaholanki, anglash zaruriy bo 'lgan ramziylik bugungi kun she'rriyatining asosiy tamoyili ekan, undan qochgan holda she'rni shuursiz, basit qilib yaratmoqdan ham adabiyot go 'zallashmaydi yoki ommalashib qolmaydi. Masalan, Rauf Parfi mahorat xanjari bilan qurollangan har bir she'rini so 'nggi imkonga qadar sayqallash, takomilga yetkazishdan erinmaydigan shoirdir. U ko 'ngil rozlari bo 'lgan she'rлари o 'ziga emas, balki vatani va millatiga xizmat qildirgan ijodkordir. Shuning uchun ham bunday shoir she'rлари (sodda va ochiq bo 'lmasa-da) umri shoir umridan uzoq, boqiylikka daxldor.

Rauf Parfining shu misralari mashaqqatli manzil sari oshiqayotgan bardam ruh egasi - shoirning ijodiy qiyofasini aks ettiradi:

*Davrlar qa 'rida ingraydir bashar,*

*Aytadir: "Shoir yo 'q, she'rriyat yashar".*

## REFERENCES

1. Abu Nasr Farobi. She'r san'ati. – T.: Adabiyot va san'at, 1979. –186 b.
2. Abu Nasr Farobi. Shoirlar san'ati qonunlari haqida. - T., 1980
3. Kaykovus. Qobusnama. – Toshkent: “Yangi asr avlodи”, 2016. – B.158
4. Abu Ali ibn Sino. Lirika. –B. 2 .www.ziyouz.com
5. Aziz Said. Vaqt manzili. Akademnashr.-T.:2021,-67-b
6. Dilnavoz Yusupova. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs'a” asarida turkiy aruz masalalari. <https://www.researchgate.net>
7. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balogs'a. “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2002-yil, 1-son. –B.5
8. Abu Nasr Farobi. She'r san'ati. – T.: Fan, 1979. – B.14
9. Bualo. Poeziya sənəti. – Baki: “Şərq-Qərb”, 2006. –S.21
10. III. Xuseynzoda, X. Sharifov. Makomi Ibni Sino dar sheryu adabi tochik. Dushanbe: “Maorif”, 1985-B.114

<sup>11</sup>Kaykovus. Qobusnama. – Toshkent: “Yangi asr avlodи”, 2016. – B.158